

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiyqaldingiz?

16-mavzu: [m] tovushi. Mm harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [m] tovushining talaffuzi va Mm harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [m] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: So'zning ikkinchi bo`g`inini topish, chapga va o`ngga o`qiganda bir xil o`qiladigan so'zlar, [m] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi li kartochkalar , kesma harflar, "Mitti quyon" ertagi.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Men haqimda mashqi: O'qituvchi men so'zi bilan boshlanadigan ikkita gap tuzishni so`raydi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida o` harfi bilan boshlanadigan 4 ta harfdan iborat so'z hosil qilishni so`raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o`rgangan harflarimiz bilan so`zlar tuzing. Tuzgan so`zlariningizni partadoshingizga o`qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Qanday so`zlar tuza oldingiz?
- Partadoshingiz qanday so`zlarni tuza oldi?
- Partadoshingiz tuzgan so`zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so`zlar orasida yo`q?

2.Mavzuni mustahkamlash: (5 daqiqa)

Harflar tasmasidagi avvalgi darslarda o'tilgan harflar esga olinadi. Unli va undosh tovushlar so'raladi.

O'qituvchi [m] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytildi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytildi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.
Mashina(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 3 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda 2 ta tovush. 3-bo'g'inda 2 ta tovush. М harfining o'rni 1-katakda ekanligi aniqlanadi. Shu kataknini ko'k rangga bo'yaladi.

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi bajariladi.

"Moslashtiring" mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi.

Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)

Berilgan so'z va gaplarni o'qing.

She'rni o'qing. (She'rni o'qituvchi yoki o'qishni biladigan bola o'qiydi)

O'qishni biladigan o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan topishmoq o'qiladi va javobi topiladi.

Yer ostida, yer ustida
Bir transport tez yurar.

Elektrli relsi bor,
Odamlar kutib turar.

Metro haqida suhbat o'tkaziladi.

Rasmda nima tasvirlangan?

Siz yashab turgan joyda metro bormi?

Bu transport turi haqida nimalar bilasiz?

Tinglab tushunish: "Mitti quyon" ertagi QR-kod orqali tinglanadi.

Ertak mazmuni yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

[m] tovushi. M m harfi 16-dars

O-mon, ma-na

O-lim, ni ol, ni ol-ma.


Man-non, a-na

Mitti quyon

Yer ostida, yer ustida
Bir transport tez yurar.
Elektrli relsi bor,
Odamlar kutib turar.

27

1. Berilgan bo`g`inni o`qing. Unga shunday bo`g`in qo`singki so`z hosil bo`lsin. Topgan bo`g`inni bo`sh katakka yozing. **Olma, oltin, olma, amma**



O`qituvchi uchun eslatma:

So`zning ikkinchi bo`g`inini topishda avval birinchi bo`g`inni o`qish va shunday bo`g`in bilan boshlanadigan so`zlarni eslash orqali topish mumkinligini tushuntiring.

2. M harfini to`g`ri yozilgan harflar bo`ylab malinani oldiga ko`rsatkich chizish orqali olib boring.

ota 1 2 3	\longleftrightarrow	ato 3 2 1	$=$	ota	ana 1 2 3	\longleftrightarrow	ana 3 2 1	$=$	ana	
ola		non		nom		ona		amma		ilm
омма		tol		мана		lol		nina		нома

3. Berilgan so`zlarni chapdan o`ngga va o`ngdan chapga o`qing. Agar 1 tarafga o`qiganingizda so`z hosil bo`lsa shu so`z tagiga bir chiziq, agar 2 tarafga o`qiganda ham so`z hosil bo`lsa ikki chiziq chizing.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?

17-mavzu: [u] tovushi. Uu harfi

Dars maqsadi:

- [u] tovushining talaffuzi va Uu harfining bosma shakli bilan tanishadilar;
- [u] unli tovush ekanligini bilib oladilar;
- so`zlardan [u] tovushining o`rnini aniqlashni o`rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so`zlar: savol-javob, [U] tovushi,

Didaktik materiallar: ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi li kartochkalar, kesma harflar.